



INGLIZ TILIDA AYRIM PREDLOGLARNING TILLARARO KORRESPONDENSIYASI

Mamajonova Mahbuba Mirzayevna

Farg'ona davlat universiteti

Ingliz tili o'qitish metodikasi kafedrası o'qituvchisi, dotsent

Yoqubova Gulasal Farhodjon qizi

Farg'ona davlat universiteti

Ingliz tili o'qitish metodikasi kafedrası o'qituvchisi

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-June 2023 yil

Ma'qullandi: 05-June 2023 yil

Nashr qilindi: 09-June 2023 yil

KEY WORDS

analitik til, agglutinatív til, muqobillik, kelishiklar, ko' makchilar, ma'noviy farqlanish, yo'nalish predlogi, interyer.

ABSTRACT

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida predlog so'z turkumi, ularning xususiyatlari, ma'noviy qirralari hamda ularning o'zbek tilida muqobil so'z turkumlari yordamida ifodalanishi aks ettirilgan. Shuningdek predloglar va ularning muqobillarining turli kontekstlarda farqlanishi misollar orqali yoritib beriladi.

Tarjima xoh yozma bo'lsin, xoh og'zaki bo'lsin, millat va xalq o'rtasidagi muhim aloqa vositasi rolini bajarib kelmoqda. Dunyoda globallashuv jarayoni kechayotgan Shu kunda tarjimaning nafaqat amaliy, balki nazariy ahamiyati ham yanada ortib bormoqda.

Har qanday tarjimaning asosiy vazifasi asl tilda so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan bildirilgan kommunikativ maqsadni o'zga tarjima tilida to'la va aniq ifoda etishdan iborat.

Tarjimaning aniq va mukammal bo'lishida tarjima tilning grammatik qurilishi unga muvofiq til birliklarining mavjud ekanligi yoki emasligi, tilning ob'yektiv borliqini ifoda eta olish omillar qatorida tarjimonning mahorati katta rol o'ynaydi. Shu ma'noda, tarjimon nafaqat asliyat tarjima tillarning grammatik qurilishi leksik boyligini, balki o'sha tillarda gapiruvchi xalqlar tarixi, urf – odatlari, an'analari til birliklarining funksional jihatlari kabilar haqida ham mukammal bilimlarga ega bo'lishi kerak.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tarjima jarayonini oson va qiyin kechishida tillarning qarindoshligi yoki qarindosh emasligi, tipologik jihatdan bir yoki boshqa – boshqa til tizimlariga mansubligi ham katta rol o'ynaydi. Analitik qurilishiga ega bo'lgan ingliz, fransuz, ispan kabi tillarning grammatikasi va grammatik qurilishida o'xshash tomonlarining ko'pligi tarjima jarayonini osonlashtirsa agglutinatív tillarga mansub hozirgi zamon o'zbek tilida va analitik qurilishga ega bo'lish hozirgi zamon ingliz tili asosida amalga oshiriladigan tarjimalarda bu jarayon qiyinroq kechishi mumkin.

Ingliz tilidagi predlog mavzusi ham o'zbek tili grammatikasida mavjud emas. Bu esa ingliz tilidagi predloglarni o'zbek tilida tarjimada aks ettirib bo'lmaydi degan xulosani bermaydi, chunki ingliz tilidagi predloglar o'zbek tiliga kelishik qo'shimchalari, ko'makchi so'zlar va bir qator usullar orqali beriladi. Analitik tillarning asosiy xususiyatlaridan biri shuki, grammatik ma'nolar (so'zlar munosabati) shakl yasovchi affiksalar yordamida emas, balki yordamchi so'zlar, so'z tartibi va intonatsiya vositasida ifodalanadi. Ingliz tilida yuqoridagi aksariyat

munosabatlarni ifodalashda predloglarning o'rni va roli juda muhimdir. O'zbek tilida esa bu munosabatlar asosan kelishiklar, yordamchi so'z turkumlari va boshqa qo'shimchalar orqali amalga oshiriladi. O'zbek tili agglutinatив tillar qatoriga kirib, bu turdagi tillarda so'zning o'zak yoki asosini o'zgartirmagan holda qo'shimchalar qo'shish bilan ma'lum so'z va shakl yasaladi, har bir qo'shimcha muayyan ma'no va vazifa bilan qatnashadi. Mana shu xususiyatlari bilan ingliz va o'zbek tillari bir biridan tubdan farq qiladi. Shuning uchun ham ingliz tilidagi predloglarga o'zbek tilidagi kelishiklar va yordamchi so'z turkumlar, ya'ni ko'makchilarni muqobil sifatida ko'rishimiz mumkin.

NATIJA VA UNING MUHOKAMASI

Yuqoridagilarga sabab bo'luvchi lisoniy va nolisoniy omillar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Tarjima jarayoniga jalb etilgan tillarda gaplar turli qoliplar asosida noo'xshash so'z tartibida yasalishi;
2. Gaplar tarkibiga kirgan so'zlararo munosabatlarning o'xshash emasligi. Masalan, o'zbek tilida kelishik kategoriyasi yaxshi rivojlangani holda, ingliz tilida kelishiklar sonining kamligi. Bu hol ingliz tilining ifoda vositalariga kambag'al deb hisoblashga asos bo'la olmaydi. Chunki, ingliz tilida o'zbek va boshqa tillardagi kelishiklar ma'nolari predloglar orqali o'z ifodasini topadi;
3. Asl va tarjima tillarda mavjud imo – ishora, his – hayajonni ifodalovchi vositalar, maqol va frazeologizmlar haqida yetarli bilim va tasavvurlarga ega bo'lmaslik. Masalan, Oh! Eh! Pash! Oh, Good Gracious, Good heavens! Ouch! When pigs! Sichqon sig'mas iniga, g'alvir boylar dumiga. To shake one's head, to nod kabilar.

Ingliz tilidagi sodda yig'iq gaplarni tarjima qilishda ham qator kamchiliklarga duch kelinadi. Bir tomondan ingliz tilidagi darak gaplarda so'z tartibi qat'iy bo'lsa, boshqa tomondan o'zbek tilida artikl, predlog kabi so'z turkumlarining mavjud emasligi. Bular esa ingliz tilidagi ayrim fikrlarni o'zbek tilida to'la bora olmaymiz deyishga aslo asos bo'lmaydi. O'zbek tilida imkoniyatlar cheksiz va har qanday fikrni to'liq tarjimada aks ettira olamiz. Muhimi shundaki, har ikkisi tilda ham sodda yig'iq gaplarda faqat bosh bo'laklar – ega va kesim bo'ladi.

The car stopped.	Mashina to'xtadi.
I am 10.	Yoshim 10 da.
We danced.	Raqsga tushdik.
The girl asked.	Qiz so'radi.
The meeting is over.	Yig'ilish tugadi.
The steamer has arrived.	Paraxod yetib keldi.

Predloglardan to, toward, from, away (from), through, in/into, inward(s), outward(s), out of yo'nalish ma'nosini ifodalashda faol ishlatiladi.

Toward(s)- tomon, tomonga, ...ga qarab, sari ; nisbatan yaqinroq bo'lgan yo'nalishni ifodalaydi. Lekin yo'nalishni tugash nuqtasini ko'rsatmaydi. Masalan:

The windows of the house face toward the forest.

Uyning derazalari o'rmon tomonga qaragan. (O'rmon uyga yaqin masofada joylashgan.)

-Ward predlogi boshqa ko'plab predloglarga va ayrim otlarga qo'shilib kelishi mumkin. Misol uchun skyward- osmon tomon, homeward- uy tomon, westward- g'arb tomonga. E'tibor beradigan bo'lsak ushbu birikmalarda haqiqatan -ward predlogi yo'nalishni tugash nuqtasini ko'rsatmaydi. Chunki osmonning yoki g'arbning oxirgi nuqatsiga qarashning imkoni yo'q.

O'zbek tilida toward predlogining muqobili sifatida yo'nalish ma'nosini bildiruvchi tomon, sari, qarab ko'makchilarini keltirishimiz mumkin.

Qiz baland binolar tomon yurib ketdi.

Ishchilar idoraga qarab ketishdi.

Ba'zi hollarda yo'nalish ma'nosini kuchaytirish uchun tomon ko'makchisi jo'nalish kelishigi bilan birgalikda ishlatilishi mumkin.

Qiz baland binolarga tomon yurib ketdi.

To - ...ga, tomon, tomonga degan ma'nolarni bildiradi. Uning towards predlogidan farqi shuki, towards yo'nalishning tugash nuqtasini ko'rsatmaydi, to esa aynan yo'nalishning tugaydigan oxirgi nuqtasini ko'rsatadi. Masalan:

The carriage drove off towards London... -Arava London tomonga yo'l oldi.

My father is going to London immediately to try to discover Lydia.

Otam Lidiyani topish uchun zudlik bilan Londonga jo'namoqchilar.

Yuqoridagi har ikkala gapda ham yo'nalish sifatida London nazarda tutilgan bo'lsa-da, birinchi gapda yo'nalish London tomonga xolos. Balki Londonga yetib borar, balki undan o'tib ketar.

Ikkinchi gapda esa harakat yo'nalishining oxirgi tugash nuqtasi London : undan o'tib ham ketilmaydi, yetmasdan ham qolmaydi.

Yuqoridagi misollarda keltirilgan to predlogining o'zbek tilidagi muqobili sifatida jo'nalish kelishigi qo'shinchasi -ga ni ko'rishimiz mumkin. Chunki jo'nalish kelishigi ko'makchilardan farqli ravishda harakat yo'nalishning aniq tugash nuqtasini ko'rsatadi.

Bolalar erta tongdan chug'urlashib maktabga shoshilishdi.

Ushbu gapda jo'nalish kelishigi maktab atrofi yoki uning yoniga emas aynan maktabning o'ziga ishora qilinmoqda.

In and to -ga. In va to predloglarini ishlatishda til o'rganuvchilari o'ratsida tushunmovchiliklar paydo bo'lishi mumkin. Chunki tarjima qilinganda har ikki predlogning muqobili sifatida jo'nalish kelishigi berilishi mumkin. Lekin bu ikki predlogning yo'nalish ma'nosini ifodalashida bir qancha farqlanishlar mavjud. In/into predlogi makonning ichki qismiga ishora qiladi.

Masalan: She came in/into the room. U xonaga kirdi.

Bu yerda xona 3 o'lchamli makon bo'lganligi, ya'ni ichki interyer qismi mavjudligi sababli in/into predlogi ishlatilmoqda.

She walked to the tree. U daraxtga tomon (yoniga) bordi.

Daraxtning ichki qismiga kirish imkoni bo'lmaganligi uchun bu yerda to predlogi ishlatilmoqda.

In va into predloglari ko'plab lug'atlarda bir biriga sinonim ma'nosida ko'rsatiladi. Lekin ularning qo'llanishi va ma'no qatlamida yetarlicha tavofutlar mavjud. Har ikki predlog jarayonning interyerda sodir bo'lganini ifodalaydi. Biroq in predlogi jarayonning sodir bo'lish joyiga urg'u bersa, into predlogi ko'proq bajarilgan harakatga urg'u beradi, ya'ni into predlogi dinamikdir.

Masalan: We slept in the car. Biz mashina(ichi)da tunadik.

The car crashed into the another car. Mashina boshqa bir mashinaga to'qnashib ketdi.

Misollardan ham ko'rish mumkinki, in va into predlogiga kontekstdan kelib chiqib o'zbek tilida 2 xil muqobil variant berilmoqda: o'rin-payt kelishigi va jo'nalish kelishigi. Ba'zan gapdagi konteksning o'zi in yoki into predlogini qaysi birini ishlatishni ko'rsatib beradi.

Masalan. We got into France after some delay. Ba'zi kechiktirilishlardan so'ng biz Fransiya ketdik. Buning sababi oddiy. To'g'ri biz mashinaga nisbatan in predlogini ishlatdik. Tabiiyki, mashinaga chiqish jarayoni qisqa vaqt ichida bajariladi. Lekin bir davlatdan ikkinchi davlatga o'tish masofali uzoq jarayon bo'lganligi tufayli bu yerda in predlogini ishlatishning iloji yo'q. Shuningdek qaramoq va ko'rmoq ma'nosini fodalovchi fe'llar bilan into predlogin ko'proq ishlatiladi va badiiy bo'yqadorlikni ta'minlaydi.

Masalan: He looked into my eyes. U ko'zlarimga termuldi.

XULOSA

Yuqordagilardan xulosa qilish mumkinki, ingliz tilida predloglar gap qurilishida va so'zlovchilarning o'zaro fikr almashinuvida muhim o'rin tutadi. Ingliz tilida predloglarni o'zbek tilida muqobillarini keltirishda asosan har ikki tilning turi, tabiati, ichki xususiyatlari, lug'at boyligi va kontekstdan kelib chiqiladi. Yuqorida keltirilgan misollardan aniq ko'rsatib berilganidek predloarning o'zbek tilidagi muqobillari sifatida kelishiklar, ko'makchilar va ayrim mustaqil so'zlar ko'rsatilishi mumkin. Hatto ayrim bir-biriga sinonim bo'lgan predloglar o'zbek tilida ikki xil ekvivalentga ega bo'lishi yoki o'zbek tilida birgina til birligi(masalan jo'nalish kelishigi) ingliz tilidagi bir nechta predloglar bilan muqobil kelishi mumkin. Albatta ushbu moslik har ikki tilning ichki xususiyati va imkoniyatlari bilan bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jane Austen, *Pride and prejudice*. Penguin books ltd 1999, page 65.
2. Seth Lindstromberg (1984). *English prepositions explained*. John Benjamins Publishing Company
Amsterdam / Philadelphia.
3. Rhee, Seongha. (2004). *Semantic structure of English prepositions: An analysis from a grammaticalization perspective*. *Language Research* 40(2), 397-427.
4. S.Ashirboev, I.azimov. *Ozbek tilining tarixiy grammatikasi*. Toshkent 2007.
5. Mirzaaliyev, I., & Oxunov, A. (2021). *EKVIVALENTSIZ LEKSIKANING O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA IFODALANISHI*. *Academic research in educational sciences*, 2(6), 209-212.
6. Nozima, G. (2021). *Замонавий тилшуносликда термин тушунчаси ва кўп компонентлик терминларнинг таҳлили*. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 2(6).
7. Gafurova, N. I. (2021). *Structural-semantic classification of construction terms in English and Uzbek languages*. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 571-575.
8. Gafurova, N. (2020). *Ҳозирги замон тилшунослигида “Термин” ва унга турлича ёндашувлар*. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 1(1), 58-62.
9. Абдухалимова, С. (2022). *THE CONCEPT AND CONTENT OF INTERCULTURAL DISCOURSE*. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 5(4).